

ONA TILI TA'LIMIDA KOMPETENSIYALARARO O'QUV MAQSADLARINING VERTIKAL RIVOJLANISH DINAMIKASI VA AMALIY AHAMIYATI

Klaraxon Mavlonova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyotini universiteti

O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrası

professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20812578>

Annotatsiya. Maqolada takomillashtirilayotgan Milliy o'quv dasturi doirasida ona tili fanidan o'quv maqsadlarining sinflararo vertikal va gorizontal rivojlanish dinamikasi haqida so'z boradi. O'quv maqsadlarining kodlanishi, o'qish, yozish hamda tinglash va so'zlash savodxonligi kompetensiyalari bo'yicha taqsimoti tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: vertikal dinamika, o'quv maqsadlarining kodlanishi, matn sintaksisi, o'qish savodxonligi, yozma savodxonlik, amaliy yondashuv.

Abstract. The article discusses the dynamics of vertical and horizontal development of learning objectives in the native language subject within the framework of the National Curriculum under improvement. The coding of learning objectives, their distribution by reading, writing, listening and speaking literacy competencies are analyzed.

Keywords: vertical dynamics, coding of learning objectives, text syntax, reading literacy, written literacy, practical approach.

Zamonaviy global ta'lim paradigmasida til o'qitish metodikasi shunchaki grammatik qoidalar to'plamini yodlatish yoki tayyor lisoniy qoliplarni o'zlashtirish bosqichidan butunlay uzoqlashdi. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, Milliy o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish jarayonlari ona tili fanining ham maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bu borada ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qurish, xususan, o'quv maqsadlarining vertikal rivojlanish dinamikasini ta'minlash dolzarb pedagogik muammo sifatida kun tartibiga chiqdi.

Ta'lim tizimidagi vertikal izchillik quyi sinflarda poydevor sifatida qo'yilgan boshlang'ich ko'nikmalarning yuqori sinflarda bosqichma-bosqich murakkablashib, kengayib va chuqurlashib borishini ta'minlovchi didaktik qonuniyatdir. Ona tili ta'limida ushbu dinamika, ayniqsa, o'quvchilarning nutqiy, lingvistik va kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki tilga oid ko'nikmalar (o'qish, yozish, tinglash va so'zlash) bir-biridan ajralgan holda emas, balki kompetensiyalararo sintez asosida, bir butun tizim sifatida rivojlanadi. Masalan, boshlang'ich sinfda oddiy matn yaratish va uning strukturaviy qismlarini farqlash ko'nikmasi (kognitiv va nutqiy kompetensiya) yuqori sinflarga borib multimodal matnlarni tahlil qilish, argumentativ va tanqidiy esse yozish darajasiga ko'tarilishi kerak. Biroq bugungi ona tili ta'limi amaliyotida vertikal rivojlanish dinamikasini loyihalashda bir qator tizimli ziddiyatlar ko'zga tashlanmoqda. Ko'p hollarda o'quv dasturlari va darsliklardagi o'quv maqsadlari sinfdan sinfga o'tishda shunchaki mavzular ko'lamining kengayishi, ya'ni gorizontal takrorlanish bilan cheklanib qolmoqda, kognitiv yuklama darajasi esa yetarli darajada dinamik o'sish darajasiga chiqmayapti. Bu o'quvchilarning umumiy savodxonlik darajasi oshsa-da, ularda matn bilan ishlash, fikrni kreativ va pragmatik nuqtayi nazardan to'g'ri bayon qilish kabi hayotiy ko'nikmalarning sust rivojlanishiga olib kelmoqda.

Milliy o'quv dasturini takomillashtirish maqsadida taklif qilinayotgan o'quv dasturida fanning tegishli kompetensiyalari bo'yicha o'quv maqsadlari sinflar kesimida ham gorizontaal, ham vertikal shaklda aniqlashtirildi. Jami 634 ta o'quv maqsadi ishlab chiqilib, ularning sinflararo taqsimoti o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda taqsimlandi: 1–4-sinflarda 258 ta (40.7%), 5–9-sinflarda 289 ta (45.6%) va 10–11-sinflarda 87 ta (13.7%) maqsad belgilandi. (Ushbu o'quv maqsadlar loyiha sifatida taqdim etilmoqda. *K.M.*)

1. O'quv maqsadlarining tarkibiy taqsimoti. Dastur doirasida fanga oid uchta asosiy kompetensiyaning o'quv maqsadlari ulushi quyidagicha belgilangan:

O'qish. Jami 264 ta o'quv maqsadi (6 ta mazmuniy blok, 31 ta subkompetensiya). Bu jarayon texnik o'qishdan boshlanib, tanqidiy talqin qilish, matn tuzilishi va muallif niyatini anglashgacha bo'lgan tizimni qamrab oladi.

Yozish. Jami 219 ta o'quv maqsadi (6 ta mazmuniy blok, 24 ta subkompetensiya). Tildan matn yaratishgacha bo'lgan bosqichlarni, ya'ni so'z tanlash, grammatika, matn yaratish va uni tahrirlash jarayonlarini tizimlashtiradi.

Tinglash va so'zlash. Jami 151 ta o'quv maqsadi (5 ta mazmuniy blok, 15 ta subkompetensiya). Muloqotdan refleksiya gacha bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi. (Ushbu o'quv maqsadlar loyiha sifatida taqdim etilmoqda. *K.M.*)

2. Lingvistik qamrov va matn sintaksisining o'rnini. Lingvistik qamrovni o'rganish shuni ko'rsatadiki, fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis kabi an'anaviy bo'limlar tarkibidagi maqsadlar bevosita matn bilan ishlashga yo'naltirilgan. Eng katta blok esa matn sintaksisi bo'lib, u jami 153 ta o'quv maqsadini qamrab oladi. Bu ona tili ta'limida “grammatizm”dan voz kechilib, til birliklarining matndagi funksional vazifasiga e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. (Ushbu o'quv maqsadlar loyiha sifatida taqdim etilmoqda. *K.M.*)

3. Vertikal rivojlanish va kodlanish tizimi. Har bir o'quv maqsadi o'ziga xos xalqaro kodlash tizimiga ega. Masalan, O1.O'2.O3 kodi: birinchi raqam sinfni (1-sinf), keyingi harf va raqam kompetensiya hamda uning tarkibiy qismini (o'qish, lug'at boyligi), oxirgi raqam esa maqsad tartib raqamini bildiradi.

Maqsadlarning vertikal rivojlanish dinamikasi (1-sinfdan 11-sinfgacha) o'quvchi ko'nikmalarining qanday o'sib borishini yaqqol ko'rsatadi:

1–4-sinflarda tayanch ko'nikmalar: o'quvchi harf, so'z, gap, oddiy matnni taniydi, ovoz chiqarib o'qiydi va savollarga sodda javob beradi. Masalan, 1-sinfda: III'qituvchi yordamida matndagi ma'nolari yaqin yoki qarama-qarshi bo'lgan so'zlarning mazmunga ta'sirini anglash;

5–9-sinflarda strategiya va tahlil: matn turlari, muloqot strategiyalari, dalillash va uslub tanlash ko'nikmalari shakllanadi. Masalan, 7-sinfda: muallifning yaqin, qarama-qarshi ma'noli, talaffuzi o'xshash so'zlardan foydalanish maqsadini anglash;

10–11-sinflarda baholash va transfer: murakkab matn, manbani baholash, kontekst va muallif uslubini tahlil qilish hamda hayotda qo'llash. Masalan, 11-sinfda: matndagi qarama-qarshi, yaqin, ko'p ma'noli va shakldosh so'zlarning nutq ifodaliligiga ta'sirini tahlil qilish orqali muallif uslubiga baho berish.

O'quv maqsadlarining bunday tartibda vertikal va izchil shakllantirilishi ona tili fanini o'qitishda uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchi har yili yangi mavzuni mutlaqo mustaqil bilim sifatida o'rganmaydi, balki oldingi sinfdagi ko'nikmasini spiralsimon tarzda rivojlantirib boradi. Bu metodologiya o'quvchilarda nafaqat savodxonlikni, balki hayotiy vaziyatlarda muammolarni hal qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi global umumiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent. 2020-yil, 23-sentyabr. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5013007#-5014174>
2. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021–2024.
3. Mavlonova K., Tursun Sh. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati. “Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2024. – 17–22-b.
4. Mavlonova K. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv/ “Ma'rifat” gazetasi. – Toshkent, 2022. 29-son. – 2-3-b.
5. Swan, M. Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // Methodology in language teaching – Cambridge University Press, 2002.
6. <https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-lower-secondary/curriculum/english/?hl=ru-RU>
7. <https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-igcse-english-first-language-0500/?hl=ru-RU>